O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIY HIMOYA TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING DOLZARB MASALALARI

Sodiqova Husniyaxon Bahromjon qizi
O‘zbekiston qizil yarim oy jamiyati Farg‘ona shahar bo‘linmasi
husniyaxon719@gmail.com +998777131897

Anotatsiya: *Mazkur maqolada O‘zbekistonda ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarni joriy etishning ahamiyati,mavjud muammolari va istiqbollari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.Raqamli transformatsiya jarayonlari ijtimoiy himoya xizmatlarining samaradorligini oshirish,aholining ehtiyojmand qatlamlarini aniqlash va ularga manzilli yordam ko‘rsatish imkoniyatlarini kengaytiradi.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy himoya,raqamli texnologiyalar,raqamli transformatsiya,ijtimoiy xizmatlar,elektron hukumat.*

Kirish

Hozirgi globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish har bir davlatning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.Ijtimoiy himoya jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta`minlash,aholining turmush darajasini oshirish hamda ehtiyojmand qatlamlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan muhim ijtimoiy institutdir.

So‘nggi yillarda dunyo mamlakatlarida ijtimoiy xizmatlarni raqamlashtirish orqali davlat xizmatlari sifatini oshirish,byurokratik jarayonlarni qisqartirish va ijtimoiy yordamlarni manzilli yetkazish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Asosiy qism

O‘zbekistonda ham ijtimoiy himoya tizimini modernizatsiya qilish bo‘yicha muhim islohotlar amalga oshirilmoqda.Xususan,yagona ijtimoiy reyestr tizimini joriy etilishi ijtimoiy yordamlarni tayinlash jarayonini avtomatlashtirish va shaffofligini ta`minlashga xizmat qilmoqda.

Raqamli texnologiyalar ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish jarayonini tezlashtirish,inson omilini kamaytirish va korrupsion holatlarning oldini olishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga,raqamli texnologiyalarni joriy etishda ayrim muammolar ham mavjud.Jumladan,ayrim hududlarda internet infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi hamda aholining raqamli savodxonligi pastligi ijtimoiy xizmatlardan samarali foydalanishga to‘sqinlik qilmoqda.

Bugungi kunda ko‘plab rivojlangan davlatlarda ijtimoiy himoya tizimini samarali tashkil etishda raqamli texnologiyalardan keng foydalanilmoqda.Masalan,Estoniya,Janubiy Koreya va Singapur kabi davlatlarda elektron hukumat tizimi orqali aholiga ko‘rsatilgan ijtimoiy xizmatlar to‘liq raqamlashtirilgan.

Mazkur davlatlarda fuqarolar turli ijtimoiy xizmatlardan onlayn platformalar orqali foydalanish imkoniyatiga ega.Elektron tizimlar yordamida nafaqa,ijtimoiy yordam va boshqa xizmatlarini oldini olish jarayoni ancha soddalashtirilgan.Bu esa byurokratik to‘siqlarni kamaytirish hamda xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek,rivojlangan davlatlarda ijtimoiy himoya tizimida katta ma`lumotlar(Big Data) va sun`iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish orqali aholining ehtiyojlarini aniqlash va ijtimoiy yordamni manzilli yetkazish imkoniyatlari kengaygan.Ushbu tajribalar O‘zbekiston uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib,ijtimoiy himoya tizimini yanada takomillashtirishda ulardan samarali foydalanish mumkin.

O‘zbekistonda raqamli transformatsiya jarayonining rivojlanishi

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda davlat boshqaruvi tizimida keng ko‘lamli raqamli islohotlar amalga oshirilmoqda.Xususan, elektron hukumat tizimi,yagona interaktiv davlat xizmatlari portali hamda turli axborot tizimlari joriy etilmoqda.

Mazkur jarayonlar ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish tizimiga ham ijobiy ta`sir ko‘rsatmoqda.Jumladan,Yagona ijtimoiy reyestr tizimi orqali ehtiyojmand oilalarni aniqlash va ularga davlat tomonidan ko‘rsatiladigan ijtimoiy yordamlarni tayinlash jarayoni avtomatlashtirilgan.

Bundan tashqari,fuqarolar davlat xizmatidan masofadan turib foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lishmoqda.Bu esa nafaqat vaqtni tejash,balki davlat xizmatlari ko‘rsatishda shaffoflikni ta`minlashga ham xizmat qiladi.

Raqamli texnologiyalar ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish jarayonini tezlashtirish,inson omilini kamaytirish hamda korrupsiya holatlarining oldini olishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Taklif va tavsiyalar

Ijtimoiy himoya tizimini yanada takomillashtirish maqsadida quyidagi qo‘shimcha takliflarni ham ilgari surish mumkin.

1.Ijtimoiy himoya tizimida yagona integratsiyalashgan axborot platformasini rivojlantirish.

2.Aholining raqamli savodxonligini oshirish.

3.Hududlarda internet infratuzilmasini kengaytirish.

4.Sun`iy intellekt va katta ma`lumotlar texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish.

5.Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish jarayonida zamonaviy mobil ilovalarni joriy etish.

6.Mahalla darajasida raqamli xizmatlardan foydalanish bo‘yicha aholiga maslahat beruvchi markazlar tashkil etish.

7.Ijtimoiy soha xodimlarining raqamli texnologiyalar bo‘yicha malakasini oshirish.

8.Davlat organlari o‘rtasida ma`lumot almashish tizimini yanada takomillashtirish

Xulosa

Xulosa qilib aytganda,ijtimoiy himoya tizimini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish zamonaviy davlat boshqaruvi tizimining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.Ijtimoiy himoya tizimini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish davlat

xizmatlari samaradorligini oshirish va aholining turmush darajasini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega.Raqamli transformatsiya jarayonini ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirish,aholining ehtiyojmand qatlamlarini aniqlashda hamda ularga manzilli yordam ko‘rsatish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shuningdek,raqamli texnologiyalarni ijtimoiy himoya tizimiga joriy etish orqali davlat xizmatlari ko‘rsatish jarayonining shaffofligi va samaradorligi oshadi.Bu esa fuqarolar davlat organlariga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash hamda jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta`minlashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari,ijtimoiy xizmatlarni raqamlashtirish orqali aholiga xizmat ko‘rsatishda ortiqcha byurokratik to‘siqlarni kamaytirish,xizmatlar ko‘rsatish muddatini qisqartirish hamda inson omilini minimallashtirish mumkin.Natijada fuqarolar davlat tomonidan ko‘rsatiladigan ijtimoiy xizmatlardan yanada qulay va tezkor tarzda foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

Kelgusida zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish orqali ijtimoiy himoya tizimini yanada takomillashtirish mumkin.Ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarni keng qo‘llash,davlat organlari o‘rtasida axborot almashinuvi tizimini takomillashtirish hamda aholining raqamli savodxonligini oshirish muhim ahamiyat kasab etadi.Shu bilan birga,raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayonida barcha hududlarda teng imkoniyatlarni ta`minlash ham muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Umuman olganda,ijtimoiy himoya tizimini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish nafaqat davlat xizmatlari samaradorligini oshirish,balki aholining turmush darajasini yaxshilash va ijtimoiy adolatni ta`minlashga xizmat qiladi.Shu bois kelgusida ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish va zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti.Raqamli O‘zbekiston -2030 strategiyasi.
2.Abdurahmonov Q.X.Ijtimoiy siyosat.Toshkent.
3.World Bank Social Protection and Jobs Strategy.
4.UNISEF.Social Protection System in Uzbekiston.
5.BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP).
O‘zbekistonda raqamli transformatsiya jaroyonlari bo‘yicha hisobot.
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi.Elektron hukumat tizimini rivojlantirish bo‘yicha qaror to‘plami.
7. OECD.Digital Government Review:Enhancing Public Sevice Delivery.
8. Asian Development Bank.Digital Transformation and Social Protection Systems.